



**KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK INNOVATSION
KORXONALAR ROLI**

Ahmadjonov Ilyosbek

Namangan davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kichik biznesni rivojlantirishda kichik innovatsion korxonalarining o'рни va ahamiyati tahlil qilingan. Innovatsion faoliyatning iqtisodiy o'sishga ta'siri, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda texnologik yangilanishni jadallashtirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kichik innovatsion korxonalar duch kelayotgan asosiy muammolar – moliyaviy cheklovlar, infratuzilmaviy muammolar, kadrlar salohiyatining yetishmasligi kabi omillar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda statistik va tahliliy metodlardan, shuningdek, mahalliy va xalqaro tajribalarni solishtirish asosida ilmiy xulosalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes, innovatsion korxona, iqtisodiy rivojlanish, innovatsiyalar, texnologik yangilanish, raqobatbardoshlik, infratuzilma, moliyalashtirish, kadrlar salohiyati.*

Аннотация. *В данной статье проанализирована роль и значение малых инновационных предприятий в развитии малого бизнеса. Освещены влияние инновационной деятельности на экономический рост, повышение качества продукции и услуг, создание новых рабочих мест, а также возможности ускорения технологических обновлений. Кроме того, рассмотрены основные проблемы, с которыми сталкиваются малые инновационные предприятия — финансовые ограничения, инфраструктурные проблемы, недостаток квалифицированных кадров, а также разработаны рекомендации по их преодолению. В исследовании использованы статистические и аналитические методы, а также приведены научные выводы на основе сравнения местного и международного опыта.*

Ключевые слова: *малый бизнес, инновационное предприятие, экономическое развитие, инновации, технологическое обновление, конкурентоспособность, инфраструктура, финансирование, кадровый потенциал.*

Annotation. *This article analyzes the role and significance of small innovative enterprises in the development of small business. It highlights the impact of innovative activities on economic growth, improving the quality of products and services, creating new jobs, and accelerating technological renewal. Additionally, the main challenges faced by small innovative enterprises—such as financial constraints, infrastructural problems, and lack of skilled personnel—are examined, and recommendations for overcoming these issues are developed. The study uses statistical and analytical methods, as well as scientific conclusions based on a comparison of local and international experiences.*



Keywords: *small business, innovative enterprise, economic development, innovations, technological renewal, competitiveness, infrastructure, financing, human resource potential.*

Kirish. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot va raqobatning keskin kuchayishi har bir davlat oldiga yangi-yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu jumladan, iqtisodiy barqarorlikka erishish, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish va ichki bozorda samarali raqobat muhitini shakllantirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqsadlarga erishishda kichik biznes subyektlari, xususan, innovatsion faoliyat yurituvchi kichik korxonalar alohida o'rin tutadi. Kichik innovatsion korxonalar zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular o'zining moslashuvchanligi, yangilikka intilishi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati bilan yirik sanoat korxonalaridan farq qiladi. Bunday korxonalar ko'pincha ilmiy tadqiqotlar natijasida yaratilgan yangi texnologiyalar, mahsulotlar yoki xizmatlarni tijoratlash, ya'ni amaliy foyda olish maqsadida bozorga olib chiqishga ixtisoslashgan bo'ladi.

Shuningdek, innovatsion kichik biznes subyektlari nafaqat texnologik rivojlanishga, balki iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga, regionlarda tadbirkorlik muhitini rivojlantirishga va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham salmoqli hissa qo'shadi. Shu sababli, ularni qo'llab-quvvatlash, faoliyat yuritishiga qulay shart-sharoitlar yaratish, ilmfan bilan ishlab chiqarish o'rtasida mustahkam aloqalarni yo'lga qo'yish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada kichik innovatsion korxonalarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o'рни, ularning kichik biznesni rivojlantirishdagi ahamiyati, shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi.

Kichik innovatsion korxonalarning kichik biznesdagi o'рни:

1. Innovatsiyalarni tijoratlashtirish. Kichik korxonalar tezkor qaror qabul qilish va riskka tayyor bo'lish xususiyatlari bilan katta kompaniyalarga nisbatan innovatsiyalarni bozorda tezroq sinab ko'rish va joriy etish imkoniyatiga ega.

2. Yangi ish o'rinlari yaratish. Yangi mahsulot yoki xizmat yaratish jarayonida ko'plab yangi mutaxassisliklar va kasblarga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bu esa ishsizlikni kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Mahalliy iqtisodiyotga turtki berish. Kichik innovatsion korxonalar ko'pincha lokal hududlarda tashkil etiladi va o'z faoliyatini shu yerda amalga oshiradi. Bu esa mahalliy iqtisodiyotning jonlanishiga sabab bo'ladi.

4. Yangi bozorlarni shakllantirish. Innovatsion mahsulotlar ko'pincha ilgari mavjud bo'lmagan ehtiyojlarni qondiradi. Bu esa yangi bozor segmentlarini yaratishga olib keladi.

Kichik biznesni rivojlantirish uchun quyidagi choralar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Davlat grantlari va subsidiya dasturlari – Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish orqali ularning rivojlanishini rag'batlantirish.





- Texnoparklar va innovatsion inkubatorlar – Yangi korxonalar uchun infrastrukturaviy va maslahat yordami ko'rsatish.
- Qonunchilikni soddalashtirish – Kichik biznes yuritishni osonlashtiruvchi tartiblar joriy etilishi.
- Ta'lim va kadrlar tayyorlash – Innovatsion sohalarda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash.

Kichik innovatsion korxonalar – zamonaviy iqtisodiyotning yuragi hisoblanadi. Ular orqali nafaqat yangi texnologiyalar rivojlanadi, balki jamiyatning turmush sifati ham yaxshilanadi. Shu sababli, davlat va xususiy sektor tomonidan ushbu korxonalarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay ekotizim yaratish muhim ahamiyatga ega. Kichik biznes va innovatsiyalar uyg'unligi – barqaror iqtisodiy taraqqiyot garovidir.

Adabiyotlar tahlili. Alijonova Kumushxonning (2025) tadqiqotida kichik biznes subyektlarining innovatsiyalarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada mahsulot, texnologik, boshqaruv va marketing innovatsiyalarining kichik biznesning iqtisodiy o'sishiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda duch kelinayotgan moliyaviy resurslarning cheklanganligi, texnologik infratuzilmaning yetishmovchiligi va kadrlar malakasining pastligi kabi muammolar yoritilgan. Muallif davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ilm-fan va biznes hamkorligini kuchaytirish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

Abdulxakimov va Axmadjanov (2024) mintaqalarda kichik innovatsion korxonalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan. Ushbu maqolada kichik innovatsion korxonalardagi innovatsion faoliyatni olti bosqichli sxemasi taklif etilgan. Maqola mintaqalarda yangi texnologiyalarni joriy etish, modernizatsiya, diversifikatsiya va yangi biznes modellarini shakllantirish kabi masalalarni ko'rib chiqadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni integratsiyalash orqali kichik biznesning iqtisodiy o'sishiga erishish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Azamatov va Aripov (2024) axborot texnologiyalarining kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini o'rgangan. Maqolada axborot texnologiyalarining ma'lumotlarni almashish tezligi, aniqligi va samaradorligi orqali biznesni transformatsiyasini yaxshilashga yordam berishi ta'kidlangan. Yevropa amaliy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, unumdorlikning 50% dan ortig'i axborot texnologiyalariga sarmoya kiritish orqali erishiladi. Kichik korxonalar o'z biznes faoliyatini ishonchli, muvozanatli va sifatli amalga oshira olsalar, global miqyosda raqobatbardosh hisoblanadilar.

Bozarov (2024) innovatsion iqtisodiyotda kichik biznesni rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish masalasini ko'rib chiqadi. Maqolada kichik biznesning iqtisodiy o'sish muammolarini hal etish, raqobat muhitini rivojlantirish va ish o'rinlari yaratishdagi roli tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot kichik biznesni rivojlantirishda ilmiy va uslubiy yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatadi.





Farmonov (2024) kichik va o'rta biznesda innovatsion boshqaruvning rolini o'rgangan. Maqolada kichik va o'rta biznes boshqaruv sohasidagi innovatsion transformatsiyaning dolzarbligi haqida tushunchalar keltirilgan. Ushbu tadqiqot kichik biznes boshqaruvining innovatsion yondashuvlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik innovatsion korxonalar kichik biznesni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish va iqtisodiy o'sishga erishishda asosiy vosita hisoblanadi. Biroq, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy resurslarning cheklanganligi, texnologik infratuzilmaning yetishmovchiligi va kadrlar malakasining pastligi kabi muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ilm-fan va biznes hamkorligini kuchaytirish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish zarur.

Tadqiqot natijalari muhokamasi. Ushbu tadqiqot davomida o'rganilgan ma'lumotlar asosida kichik innovatsion korxonalar kichik biznesni rivojlantirishda muhim strategik resurs ekanligi aniqlandi. Ularning texnologik yangilanish, mahsulot diversifikatsiyasi, ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishdagi roli chuqur tahlil qilindi. Quyida asosiy muhokamalar keltiriladi:

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, innovatsion faoliyat olib borayotgan kichik korxonalar iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qodir. Bunday korxonalar texnologiyalarni tijoratlashtirish, yangi mahsulotlarni bozorga olib chiqish va xizmat ko'rsatishda tezkorlik bilan ajralib turadi. Ularning ishlab chiqarish samaradorligi oddiy kichik biznes subyektlariga qaraganda ancha yuqori.

Kichik innovatsion korxonalar moslashuvchan boshqaruv tizimi, ijodkor yondashuv va riskga moyilligi bilan yirik korxonalardan farq qiladi. Bu esa ularga tezkor texnologik o'zgarishlarga javob berish, yangi innovatsion g'oyalarni sinovdan o'tkazish va bozorga tez chiqish imkonini beradi. Tadqiqotda respondentlarning 68% i aynan shu jihatlarni o'z ustunligi sifatida ko'rsatgan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kichik innovatsion korxonalar innovatsiyalarni joriy etishda qator muammolarga duch kelmoqda:

- Moliyaviy mablag'larning cheklanganligi
- Kredit olish shartlarining og'irligi
- Ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikning sustligi
- Kadrlar malakasining yetarli emasligi
- Innovatsion infratuzilmaning (texnopark, inkubator, laboratoriya va h.k.)

yetishmasligi

Bu muammolar kichik innovatsion bizneslarning rivojlanishini sekinlashtiradi va ularning iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda kichik innovatsion biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati aniq sezilmoqda. Jumladan, texnoparklar, innovatsion fondlar, subsidiya va grant tizimlari orqali ko'plab loyihalar moliyalashtirilmoqda. Bu esa kichik korxonalarga





yangi texnologiyalarni joriy etish va faoliyatini kengaytirish imkonini beradi. Tadqiqotda ishtirok etgan korxonalarining 42% i so'nggi ikki yil ichida davlatdan innovatsion qo'llab-quvvatlash olganini bildirgan.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, kichik innovatsion korxonalar ko'pincha ilmiy-tadqiqot institutlari bilan tizimli hamkorlik o'rnatmagan. Bu esa ilmiy ishlanmalarning amaliyotga tatbiq etilmasligiga, innovatsiyalarning tijoratlashtirilmasligiga sabab bo'lmoqda. Ushbu muammo ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani mustahkamlash zaruratini ko'rsatadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik innovatsion korxonalar zamonaviy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega bo'lgan subyektlar hisoblanadi. Ular nafaqat yangi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish orqali bozorni diversifikatsiyalaydi, balki raqobatbardoshlikni kuchaytirish, texnologik yangilanishni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Kichik innovatsion korxonalar o'zining moslashuvchanligi, yangilik yaratish salohiyati va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati bilan yirik kompaniyalardan ustunlikka ega. Biroq, ularning rivojlanishida moliyaviy resurslarning cheklanganligi, infratuzilmaviy imkoniyatlarning yetarli emasligi, malakali mutaxassislar tanqisligi va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikning sustligi kabi bir qator to'siqlar mavjud.

Shu boisdan, kichik innovatsion korxonalarni samarali rivojlantirish uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- innovatsion infratuzilmani (texnoparklar, inkubatorlar, laboratoriyalar) kengaytirish;
- davlat grantlari, kreditlar va soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalari bilan tizimli hamkorlikni kuchaytirish;
- malakali kadrlar tayyorlash va ularni innovatsion loyihalarga jalb etish.

Xulosa qilib aytganda, kichik innovatsion korxonalar va kichik biznes o'rtasidagi integratsiya kuchli innovatsion iqtisodiyotga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning barqaror iqtisodiy taraqqiyoti, raqobatbardoshligi va xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashda muhim omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alijonova, K. (2025). *Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish omillari*. Ilmiy-texnikaviy axborotlar jurnali, №3, 21–26-bet. <https://scientific-jl.com>
2. Abdulxakimov, I., & Axmadjanov, A. (2024). *Mintaqalarda kichik innovatsion korxonalarni rivojlantirish yo'nalishlari*. "Yashil iqtisodiyot va barqaror taraqqiyot" ilmiy jurnali, №1, 45–51-bet. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



3. Azamatov, D., & Aripov, B. (2024). *Axborot texnologiyalarining kichik biznesdagi roli va samaradorligi*. “Ilmiy xabarlar” jurnali, №4, 78–83-bet. <https://ilmiyxabarlar.uz>

4. Bozarov, X. (2024). *Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari*. Farg‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali, №2, 35–42-bet. <https://journal.fdu.uz>

5. Farmonov, R. (2024). *Kichik va o‘rta biznesda innovatsion boshqaruvning dolzarbligi*. “Ijtimoiy fanlar va innovatsiyalar rivoji” jurnali, №1, 12–18-bet. <https://universalpublishings.com>

